



№7(3)
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



*Elektron nashr. 338 sahifa,
25-iyul, 2026-yil.*

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapirjanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Woosyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Doniyorov S. M. – “Yangi O'zbekiston” va “Pravda Vostoka” gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: “Tadbirkor va ishbilarmon” MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G'. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers “Yangi O'zbekiston” and “Pravda Vostoka”, Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

Vakhobov Anvar Abdusattor oğlu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

“Maktabgacha va maktab ta'limi” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta'limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo'yicha
ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

Imkoniyati cheklangan talabalarda jismoniy sifatlarni sport mashg'ulotlari yordamida rivojlantirishning afzalliklari	8
Davronov Rustam Iloxovich	
Использование фонетических игр и современных технологий в обучении русскому языку в общеобразовательных школах Узбекистана	15
Абумалик Муталлиевич Дедаханов	
Maktablarda chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlikni isloh qilish muammo va yechimlar	20
Qudratov O'ktam G'ofurovich	
The Role of Motivation in Learning English	25
Kamoldinova Mushtariybonu Azizbek qizi	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida inklyuziv ta'lim muhitini boshqarishning ijtimoiy-pedagogik asoslari	30
Axrarova Gulrux Gulamkadirovna	
Bo'lajak logopedlarda metakognitiv-dagnostik kompetentlikni rivojlantirishning xorijiy va milliy tajribasi	37
Suvankulova Shaxnoza Karimkulovna	
Ingliz tili darslarida individual va pragmatik yondashuvni amalga oshirish texnologiyalari	43
Yuldasheva Dilnoza Bobojonovna	
Talabalarining texnologik fikrlash kompetensiyalarini rivojlantirishning tarkibiy komponentlari	48
Kushbakova Barno Batirkulovna	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida inklyuziv ta'limni joriy etishda ijtimoiy hamkorlik va jamoatchilik fikrini shakllantirish	54
Arslanova Madinaxon Mansurovna	
O'quvchi-yoshlarga axloqiy ta'lim-tarbiya berishda qoraqalpoq dostonlarining ahamiyati	59
Esemuratova Turganbike Aytmuratovna	
Talaba markazli yondashuv asosida ingliz tilini o'qitishda interaktiv metodlardan foydalanish samaradorligi	63
Narzullayeva Firuza Olimovna	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida 5-6 yoshdagi bolalarni kasbga yo'naltirish bo'yicha metodik xizmatni takomillashtirish	67
Rizayeva Munisxon Maxkamovna	
Generativ sun'iy intellekt vositalarining ta'lim jarayonidagi pedagogik imkoniyatlari	71
Shodiyev Azizbek Olim o'g'li	
Shaxs kamolotida psixologik salomatlikning ahamiyati va asosiy ko'rsatkichlari	76
Xolova Yulduz Erkinovna	
Zamonaviy ta'lim paradigmasida fizika fanini o'qitish: virtual va to'ldirilgan borliq hamda sun'iy intellekt texnologiyalarining integrativ metodikasi	83
Zuhriddinov Farrux Faxriddin o'g'li	
Event ta'lim texnologiyasi vositasida talabalarining o'qish samaradorligini oshirish	87
Latipova Ma'rifat Salohiddin qizi, Bo'tayeva Saodat Xudoyor qizi	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining intellektual faolligini rivojlantirishga ta'sir etuvchi individual-psixologik omillar	90
Djurakulova Munira Suyunovna	
Ingliz tilini o'qitishda interaktiv metodlarni takomillashtirish modeli hamda ularning ta'lim samaradorligiga ta'siri	97
Narzullayeva Firuza Olimovna	
Народное творчество как великое сокровище интеллектуального воспитания	102
Матмуратова Гулистан Камалатдиновна	
Raqamli intellekt: o'quvchilarda mediasavodxonlik kompetensiyasini rivojlantirish – davr talabi	108
Nishonova Muattarxon Alisherovna, Toirova Nafisa Muzaffar qizi	



Umumta'lim fanlaridan dars samaradorligini oshirishda axborot texnologiyalaridan foydalanishni takomillashtirishning ilmiy-metodik asoslari.....	111
Toshmamatova Munisa Toshmamatovna	
Xorazm viloyatida ekoturizmni rivojlantirish istiqbollari (tumanlar kesimida)	115
Xo'jyozova Dildora Shonazar qizi, Dusanova Sharofat Baltaboyevna	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda kreativ yondashuv asosida innovatsion tafakkur ko'nikmalarini rivojlantirishning zamonaviy yo'nalishlari.....	121
Kadirova Dildora Najadbekovna	
The Integration of Artificial Intelligence in English Language Teaching: Opportunities and Challenges	125
Moxinur Yusupova	
Pragmatik-tizimli portfolio (PTP) texnologiyasi: talabalar reflektiv tafakkurini faoliyat dalillari asosida rivojlantirish.....	131
Abdullayeva Ziroatxon Qurbonovna	
Sog'lig'ida cheklovlari mavjud bolalar jismoniy va psixologik holatini takomillashtirishda yengil atletika mashg'ulotlarining ahamiyati	136
Hikmatova Nigoraxon Hasanboy qizi	
Art badiiy ta'limning rivojida klaster yondashuvi	140
A. S. Umarov	
Simulyatsion o'yin muhitida maktabgacha yoshdagi bolalarning ijtimoiy-hissiy kompetentligini shakllantirish imkoniyatlari.....	143
Turg'unova Mohinaxon Akmaljon qizi	
O'smirlarda deviant xulq-atvor shakllanishining ijtimoiy-psixologik xususiyatlari (empirik tadqiqot).....	150
Toshpolatova Robiya Akmal qizi	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida milliy mafkurani shakllantirishning pedagogik mexanizmlarini takomillashtirish	154
Ahmadov Olimjon Shodmonovich, Esanova Mehrgul Qurbanazarovna	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlaridagi dizartriyaning yengil shakliga ega 6-7 yoshli bolalardagi nutq kamchiliklarini o'yin texnologiyalari asosida korreksiyalashning samaradorligi.....	159
Baxadirova Zulfizar Azimbayevna	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida kommunikativ va ijtimoiy-hissiy kompetensiyalarni baholashning diagnostik vositalarini tanlash va qo'llash metodikasi.....	163
Abdullayeva Munojot Muxtorovna	
Talabalarni o'quvchilarning tibbiy tashxisiga mos pedagogik yondashuvlardan foydalanishga o'rgatish usullari.....	169
Yuldashova Iroda Dilshodovna	
Uzoq muddat davolanishga muhtoj bolalar uchun ta'lim muassasalarining tashkil etilishi.....	174
Yusupjanova Shaxnoz Mirzatillayevna	
O'zbekiston umumiy o'rta ta'lim tizimida raqamli STEAM muhitini joriy etish: o'qituvchilar tayyorgarligi va infratuzilma cheklovlari tahlili.....	178
Abdullayev Doston Sheraliyevich	
Bo'lajak maxsus pedagoglarning faol fuqarolik kompetensiyasining tarkibiy-mezonli modeli va rivojlanganlik darajalari	183
Sultonov Muxammadali Fayzulla o'g'li	
Совершенствование механизмов интеграции стратегического и функционального менеджмента на основе анализа деятельности государственных и международных филиалов вузов	189
A. M. Маргунов	
Решение педагогических проблем, возникающих при обучении письму леворуких учащихся начальных классов	194
Эгамбердиева Юлдуз	
Biologiya ta'limida generativ sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanishning pedagogik imkoniyatlari va metodik asoslari	198
Parmonova Marjona O'ktam qizi, Baybayeva Muxayyo Xudoyberganovna	

Bolalarda emotsional intellektni rivojlantirishning pedagogik-psixologik asoslari	204
<i>Sherdanova Farangiz Raxmat qizi</i>	
Zamonaviy televideniya suxandon nutqining tabiiyligi va auditoriya bilan ishonchli muloqot	208
<i>Maxanbetova Dilnoza</i>	
10-sinf kimyo darslarida "Spirtlar" bo'limini o'qitishda o'quvchilarning kreativ fikrlash qobiliyatlarini shakllantirish metodikasi.....	211
<i>Nazarova Yulduz Atamuratovna</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda ijtimoiy ko'nikmalarni shakllantirishda ijodiy o'yinlardan foydalanish	215
<i>Yuldasheva Shoxida Botirovna, Kurbanbayeva Moldir Abatbay qiz</i>	
Milliy taraqqiyot g'oyalari jadid ayollarining o'rni.....	220
<i>Ergashova Mehriniso Husniddin qizi</i>	
Mahalla – oila – ta'lim muassasasi hamkorligi.....	223
<i>Muxtarov Utkirjon Mutalibjanovich, Abdusamatov Ozodbek</i>	
Oliy ta'lim muassasalarida "Mikrobiologiya" modulini raqamli texnologiyalar asosida o'qitishning didaktik imkoniyatlari	227
<i>Reymova Erkinay Atabayevna</i>	
Raqamli ta'lim transformatsiyasi sharoitida professor-o'qituvchilarning kasbiy motivatsiyasini rivojlantirishning pedagogik omillari.....	232
<i>Abdusamiyev Dilmurod Abdug'ani o'g'li</i>	
Translanguaging as a Pedagogical Resource in Uzbek EFL Classrooms: Insights from a Classroom Observation	238
<i>Aziza Sobirova</i>	
Katta maktabgacha yoshdagi bolalarning ijodiy tasavvurini rivojlantirishning pedagogik-psixologik asoslari.....	243
<i>Otayeva Salamat Sabirovna</i>	
System-Structure Research of Artificial Intelligence Terms	250
<i>Odilova Fotima</i>	
Oliy ta'lim tashkilotlarida qo'llaniladigan zamonaviy ta'lim metodlarining mazmuni va o'ziga xos xususiyatlari.....	259
<i>Berdiyeva Nilufar Axatovna</i>	
Zamonaviy smart texnologiyalar asosida talabalarning texnik fikrlash kompetentligini rivojlantirishning didaktik imkoniyatlari.....	267
<i>Eshonqulova Madina Nosir qizi</i>	
Модель развития проектно-конструкторской компетентности студентов с использованием автоматизированных цифровых программ.....	272
<i>Камолова Махлиё Акбар кизи</i>	
Boshlang'ich sinf tabiiy fanlar darslarida sun'iy intellekt vositalari asosida tadqiqotchilik kompetensiyalarini shakllantirish metodikasi.....	277
<i>Savriddinova Mexrinov Ulug'bekovna, Ro'zimatov Jamshid Alisher o'g'li</i>	
Ijtimoiy qo'llab-quvvatlashning tug'ruqdan keyingi davr ayollarida onalikdan mamnunlik bilan bog'liqligi.....	282
<i>Kalandarova Madina Baxadirovna</i>	
Bo'lajak o'qituvchilarda lingvistik kompetentlikni rivojlantirish texnologiyalari	285
<i>Kamolova Mashhura Otabek qizi</i>	
Terminology and Lexical Problems in Modern Linguistics and AI.....	289
<i>Odilova Fotima</i>	
Adabiy ta'limda badiiy matnlar orqali o'qish kompetensiyalarini takomillashtirish metodikasi.....	294
<i>Abdujabborova Nilufar Rustamjon qizi</i>	
Tajriba-sinov ishlarini tashkil etish, uning bosqichlari va diagnostika metodikalari.....	298
<i>Boltayeva Go'zal Komilovna</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining nutqiy muloqotini rivojlantirishda matn bilan ishlashning assotsiativ tafakkurga asoslangan metodikasi	302
<i>Hamroyeva Xolida Rizoqul qizi</i>	



Bo'lajak biologiya o'qituvchilarining kasbiy-metodik kompetentligini baholashning kvalimetrik asoslari	307
Niyozova Shahlo Abdusaitovna	
Oilaviy holat, ma'lumot darajasi va pedagogik stajning ayollar emotsional barqarorligiga ta'sir etuvchi psixologik xususiyatlari	313
Pulatova Difuza Baxramovna	
"Kommunikativ kompetensiya"ning tarkibiy komponentlari.....	318
Saidova Sumbuloy Otabayevna	
Kasbiy kompetensiyani shakllantirishda sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish	321
Xamidova Zaynura Ramazonovna	
Wiki texnologiyasi asosida ingliz tili darslarini tashkil etish bosqichlari	324
Yunusova Dildora Hamrakulovna	
Nogiron farzandli turli yoshdagi onalarning psixologik farovonligi bilan depressiya, xavotir va stress o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik.....	328
Kasimova Xulkar Atabayevna	
Talaba-qizlarda sog'lom turmush tarzi qadriyatlarini rivojlantirishning nazariy-metodologik asoslari	332
Esanova Gulchehra Boybo'ri qizi	



ADABIY TA'LIMDA BADIY MATNLAR ORQALI O'QISH KOMPETENSIYALARINI TAKOMILLASHTIRISH METODIKASI

Abdujabborova Nilufar Rustamjon qizi

Namangan davlat pedagogika instituti, ijtimoiy fanlar fakulteti,
o'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi talabasi

Ilmiy rahbar: R. T. Tillayeva

Namangan davlat pedagogika institute dotsenti, pedagogika fanlari doktori (DSc)

Annotatsiya: Maqolada adabiy ta'limda badiiy matnlar orqali o'qish kompetensiyalarini rivojlantirish masalasi ko'rib chiqiladi. O'qish matn bilan chuqur muloqot va mustaqil fikrni shakllantirish jarayoni sifatida talqin etiladi. Badiiy asarlarning o'qish kompetensiyalarini takomillashtirishdagi o'rni asoslanadi hamda samarali metodik yondashuvlar tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: badiiy matn, o'qish kompetensiyasi, adabiy ta'lim, tanqidiy fikrlash, interaktiv metodlar, empatiya, adabiy tahlil.

Abstract: The article examines the development of students' reading competencies through literary texts in literary education. Reading is interpreted as a process of deep interaction with the text and the formation of independent judgment. The role of literary works in improving reading competencies is substantiated, and effective methodological approaches are analyzed.

Key words: literary text, reading competence, literary education, critical thinking, interactive methods, empathy, literary analysis.

Аннотация: В статье рассматривается развитие компетенций чтения учащихся средствами художественных текстов в литературном образовании. Чтение трактуется как глубокое взаимодействие с текстом и формирование собственного мнения. Обосновывается роль художественных произведений, а также анализируются эффективные методические подходы.

Ключевые слова: художественный текст, компетенция чтения, литературное образование, критическое мышление, интерактивные методы, эмпатия, литературный анализ.

KIRISH

Zamonaviy ta'lim tizimida o'qish kompetensiyasini rivojlantirish o'quvchilarning funksional savodxonligi, tanqidiy tafakkuri va mustaqil bilim olish qobiliyatini shakllantirishning muhim sharti hisoblanadi. Ayniqsa, adabiy ta'lim jarayonida badiiy matnlar orqali o'qish ko'nikmalarini takomillashtirish alohida ahamiyat kasb etadi. Badiiy asar o'quvchiga nafaqat axborot, balki estetik, emotsional va ma'naviy ta'sir ham ko'rsatadi. U tilning nafaqat leksik va grammatik, balki uslubiy, madaniy hamda falsafiy qatlamlarini ham ochib beradi. Amaliyotda esa ko'plab o'quvchilar matnni yuzaki o'qib, uning chuqur ma'nosini anglay olmasligi, mustaqil tahlil qilishda qiynalishi kuzatilmoqda. Bu holat o'qish kompetensiyasini tizimli va maqsadli rivojlantirish zarurligini ko'rsatadi.

O'qish – yozilgan matn bilan tanishish, uni tushunish va o'zlashtirishga qaratilgan nutqiy faoliyatning bir turi bo'lib, shaxslararo kommunikativ faoliyat sohasiga daxldor. U matnda turli shakllar yordamida ifodalangan ma'lumotlarni o'zlashtirish ko'nikmasini shakllantiradi va bu, o'z navbatida, inson faoliyatining har qanday turida tildan erkin hamda samarali foydalanish imkoniyatini beradi.

O'qish muloqot shakllaridan biri sifatida til o'rganish jarayonining asosi hisoblanadi. Zamonaviy pedagogikada o'qish nafaqat axborot olish vositasi, balki shaxsning tafakkurini, emotsional dunyosini va dunyoqarashini shakllantiruvchi murakkab jarayon sifatida qaraladi. Badiiy matnlar o'qish malakalarini rivojlantirishda alohida o'rin tutadi. Ular o'quvchiga yuksak adabiy tilni, ma'naviy boylikni va hayotiy tajribani o'rgatadi. Badiiy asar orqali o'quvchi nafaqat tilning grammatik va leksik qatlamlarini, balki uning estetik, uslubiy va madaniy jihatlarini ham o'zlashtiradi. Adabiyot darsi shunday jarayonga aylanadiki, unda o'quvchi matn bilan "suhbatlashadi", uning ichki ma'nolarini ochadi hamda o'z his-tuyg'ulari va tajribasi bilan solishtiradi. Shu bois adabiy



ta'limda badiiy matnlardan samarali foydalanish o'qish kompetensiyasini chuqurlashtirishning muhim yo'nalishi hisoblanadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

O'qish kompetensiyasi til o'rganishning asosiy va muhim vazifalaridan biri bo'lib, o'quvchilarning matnni tushunish, tahlil qilish, baholash va undan o'z maqsadlari yo'lida foydalanish qobiliyatlarini o'z ichiga oladi. Bu kompetensiyaning rivojlanishi tilni mukammal o'zlashtirishning boshlang'ich bosqichi hisoblanadi. Respublikamiz olimlari ushbu yo'nalishda jiddiy izlanishlar olib borganlar va ularning ishlari adabiyot o'qitish metodikasining nazariy-amaliy asoslarini tashkil etadi.

Professor Q. Yo'ldoshev badiiy asar tahlilining nazariy-metodik masalalari ustida ko'p yillik izlanishlar olib borgan va "Badiiy tahlil asoslari" kitobini yaratgan. Ushbu asarda tahlil turlari, yo'nalishlari, tamoyillari hamda tahlilga qo'yiladigan talablar tizimi ishlab chiqilgan. Olimning qarashlari respublika ta'lim muassasalarida adabiyot o'qitishning yangi bosqichga ko'tarilishiga turtki bergan. U badiiy asar tahlilini shaxs va millat ma'naviyatini shakllantirish omili sifatida alohida ta'kidlaydi. Yo'ldoshevning fikricha, tahlil faqat matnning tashqi qatlamini ochish emas, balki uning ichki ma'naviy-estetik mohiyatini anglash jarayonidir. Shu bois o'qituvchi o'quvchini matn bilan "suhbatlashishga", uning qahramonlari, g'oyalari va badiiy vositalari ustida o'ylashga undashi lozim [2; 9].

B. To'xliyev "Adabiyot o'qitish metodikasi" nomli o'quv qo'llanmasida adabiyot darsida matn bilan ishlashning turli usullarini ko'rsatib bergan. U badiiy asarlarni sharhlab o'rganishning tarixiy tajribasi, amaliyoti va zamonaviy texnologiyalariga keng o'rin ajratgan. Uning ishlarida o'quvchining matn bilan mustaqil ishlashi, tahlil qilishi va baholashi muhim pedagogik vazifa sifatida qo'yiladi. To'xliyev ta'kidlaydiki, adabiyot darsi o'quvchini faqat axborot bilan ta'minlamasligi, balki uni o'ylashga, his qilishga va o'z munosabatini bildirishga undashi kerak. Buning uchun matn ustida bosqichma-bosqich ishlash, savol-javob, munozara va ijodiy topshiriqlar muhim ahamiyatga ega [5; 6; 8].

M. Mirqosimova o'quvchilarda adabiy tahlil malakasini shakllantirish va takomillashtirish asoslarini o'z monografiyasida batafsil yoritgan. U adabiy tahlilning bosqichma-bosqich rivojlantirilishi, o'quvchining mustaqil fikrlash qobiliyatini oshirish yo'llarini ko'rsatib bergan. Mirqosimovanning yondashuviga ko'ra, adabiy tahlil malakasi birdaniga shakllanmaydi, balki o'qituvchi tomonidan tizimli yo'naltirilgan ish natijasida rivojlanadi. O'quvchi avval matnning syujeti va qahramonlari bilan tanishadi, keyin badiiy vositalarni hamda g'oyaviy mazmunni ochishga o'tadi va nihoyat o'z mustaqil xulosasini shakllantiradi. Bu jarayon o'qish kompetensiyasining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi [10].

Q. Husanboyeva va R. Niyoymetova ham adabiyot o'qitish metodikasiga oid ishlarida o'qish ko'nikmalarini rivojlantirish, matnni chuqur anglash va ijodiy yondashuv masalalariga to'xtalganlar. Ularning tadqiqotlarida o'quvchining matn bilan ishlashda faol ishtiroki, o'z fikrini asoslash hamda boshqalarning nuqtai nazarini tinglash ko'nikmalari alohida ta'kidlanadi. Bu yondashuvlar o'qish kompetensiyasini nafaqat bilish, balki uni amaliy qo'llash darajasiga ko'tarishga xizmat qiladi [7].

Taniqli metodist Safo Matjonovning fikricha, badiiy asarni o'qish o'zicha hali hech narsani anglatmaydi. Eng muhimi – nimani o'qish va o'qilgan matnni qanday tushunishdir. Demak, kitobxonlik o'qilgan kitoblar soni bilan belgilanmaydi, balki uni tushunib o'qish, ya'ni maqsadli o'qish bilan belgilanadi. Badiiy asarni o'qiganda o'quvchidagi loqaydlik faol munosabatga almashinadi: u ruhanadi, g'azablanadi, iztirob chekadi, chunki asar qalb dardi tufayli yaratilgan va bu dard o'quvchini befarq qoldirmaydi. Bu qarash o'qish kompetensiyasining mohiyatini aniq ochib beradi: o'qish faol, ongli, emotsional va tanqidiy jarayon bo'lishi kerak [3].

Xorijiy manbalarda ham o'qish faoliyati til o'rgatishning asosiy turlaridan biri sifatida keng o'rganilgan.

E. Azimov va A. Shchukin metodik atamalar lug'atida o'qishning nazariy va amaliy jihatlarini yoritib, uning semantik mohiyatini ochib berganlar. Ular o'qishni til materialini o'zlashtirish, axborot olish hamda tafakkurni rivojlantirish vositasi sifatida ta'riflaydilar. Shuningdek, adabiyotshunoslikda badiiy matnni tahlil qilishning turli maktablari mavjud bo'lib, ular matnning tuzilishi, ma'no qatlamlari va o'quvchi bilan muloqotini turlicha talqin etadilar [1; 4].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda nazariy tahlil, qiyosiy-taqqoslash, pedagogik kuzatuv va umumlashtirish usullaridan foydalanildi. Avvalo, o'qish kompetensiyasi hamda badiiy matn bilan ishlashga oid mahalliy va xorijiy ilmiy manbalar o'rganildi. So'ngra adabiyot darslarida qo'llaniladigan interfaol, kognitiv va kommunikativ metodlar tizimlashtirildi. Metodikaning amaliy qismi sifatida matnni tushunish, tahlil qilish, baholash hamda undan xulosa chiqarish bosqichlariga asoslangan yondashuv ishlab chiqildi. Metodika ma'lum bir maqsadga erishish uchun qo'llaniladigan usullar, texnikalar va yondashuvlar majmuasidir. U aniq bosqichlar va tartiblarni belgilaydi.

Shu sababli metodika maqsadga yo'naltirilgan, tizimli, amaliy, moslashuvchan hamda samarali bo'lishi lozim. O'qish kompetensiyalarini takomillashtirish metodikasi o'quvchilarning matnni tushunish, tahlil qilish, baholash va undan o'z maqsadlari yo'lida foydalanish qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgan. Mazkur yondashuv o'qish savodxonligi hamda tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Metodika o'quvchilarning yosh xususiyatlari, matnning murakkabligi va dars maqsadiga qarab moslashtirilishi mumkin.

Asosiy e'tibor o'quvchining matn bilan faol munosabatiga qaratildi. Bu jarayonda matnni savollar berish, muhokama qilish va mustaqil xulosa chiqarish orqali o'qish nazarda tutiladi. O'qish strategiyalarini, ya'ni diqqat bilan o'qish, asosiy fikrni ajratish, kontekstdan ma'noni anglash hamda matnni qismlarga bo'lib tahlil qilish ko'nikmalarini shakllantirish muhim o'rin tutadi. Badiiy matnning estetik va emotsional qatlamlarini his qilish orqali empatiya hamda madaniy anglash ko'nikmalari ham rivojlantiriladi. O'qituvchi bu jarayonda yo'naltiruvchi, rag'batlantiruvchi va baholovchi vazifasini bajaradi, biroq asosiy faoliyatni o'quvchining o'zi amalga oshirishi zarur.

Metodikaning nazariy asosi sifatida kognitiv, kommunikativ va shaxsni rivojlantiruvchi yondashuvlardan foydalanildi. Kognitiv yondashuv o'quvchining matnni qayta ishlash, tahlil qilish va yangi bilimlarni avvalgi tajribasi bilan bog'lash jarayonlarini hisobga oladi. Kommunikativ yondashuv matn bilan muloqotni, fikr almashishni hamda o'z nuqtai nazarini asoslab ifodalashni ta'kidlaydi. Shaxsni rivojlantiruvchi yondashuv esa o'quvchining emotsional, ma'naviy va ijodiy rivojlanishini nazarda tutadi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Badiiy matnlar orqali o'qish kompetensiyalarini takomillashtirish bir necha o'zaro bog'liq yo'nalishda amalga oshirilishi mumkin. Faol o'qish o'quvchini matn bilan doimiy muloqotga undaydi. Bu jarayon asosiy g'oyalarni aniqlash, fakt va fikrlarni ajratish hamda matn tuzilishini tushunish ko'nikmalarini shakllantiradi. Tanqidiy fikrlash esa muallifning nuqtai nazari, maqsadi va matndagi dalillarni baholash, o'z xulosasini asoslash imkonini beradi. O'qish strategiyalarini o'rgatish o'quvchiga matnning murakkabligi va o'z maqsadiga qarab to'g'ri yondashuvni tanlashga yordam beradi. Lug'at boyligini oshirish esa yangi so'z va iboralarni kontekst asosida tushunish hamda ularni nutqda qo'llash malakasini rivojlantiradi.

Adabiyot darslarida interfaol usullar alohida ahamiyat kasb etadi. "Klaster" metodi matnning asosiy g'oyalari o'rtasidagi bog'liqlikni ko'rishga yordam beradi. O'quvchi markaziy tushunchani yozib, undan tarqaluvchi bog'lanishlarni chizadi, shu orqali matnning tuzilishini vizual tarzda anglaydi. "BBB" jadvali (Bilaman – Bilmoq-chiman – Bildim) o'quvchiga matnni o'qishdan oldin, o'qish jarayonida va o'qib bo'lgandan keyin o'z bilimlarini tizimlashtirish imkonini yaratadi. Ushbu usul o'quvchini ongli o'qishga undaydi hamda uning avvalgi bilimlarini faollashtiradi. "INSERT" metodi o'qish jarayonida o'quvchining shaxsiy munosabatini belgilash va tahlil qilishga xizmat qiladi. Bunda o'quvchi matnda tushungan, tushunmagan yoki hayron qolgan o'rinlarni maxsus belgilar yordamida qayd etadi. Munozara esa fikr almashish, boshqalarning nuqtai nazarini tinglash va o'z fikrini himoya qilish orqali tanqidiy tafakkurni rivojlantiradi. Mazkur usullar o'quvchini passiv tinglovchidan faol ishtirokchiga aylantiradi.

Kognitiv yondashuvlar ham samarali natijalar beradi. Matnni qismlarga ajratib tahlil qilish, ko'proq savollar berish, muammolarni hal qilish va yangi g'oyalar ishlab chiqish o'quvchining matnni chuqurroq tushunishiga yordam beradi. O'qituvchi o'quvchilarga matnning har bir qismi bo'yicha savollar berishi hamda ularni o'zaro bog'lashga undashi mumkin. Interfaol o'qish, ya'ni guruhlarda muhokama qilish va debatlar tashkil etish, o'quvchilarni bir-biridan o'rganishga hamda o'z fikrlarini erkin ifodalashga undaydi. O'qish texnikalarini o'rgatish esa tez va samarali o'qish malakasini shakllantiradi. Masalan, matnni avval ko'zdan kechirish, keyin diqqat bilan o'qish, so'ng asosiy fikrlarni ajratish kabi bosqichlar o'quvchiga matn bilan ishlashni yengillashtiradi. Badiiy matnning o'ziga xosligi shundaki, u nafaqat til boyligini oshiradi, balki o'quvchining emotsional dunyosini boyitadi, ijodiy tasavvurini kengaytiradi hamda murakkab ijtimoiy-falsafiy masalalar haqida mushohada yuritishga undaydi. She'r va hikoyalar orqali o'quvchi o'z his-tuyg'ularini ifodalashni hamda adabiy til me'yorlarini mukammalroq o'zlashtirishni o'rganadi. Badiiy asarlar til madaniyatini oshiradi, empatiya tuyg'usini rivojlantiradi, turli his-tuyg'ularni anglash va ularga munosabat bildirish ko'nikmasini shakllantiradi. O'quvchi qahramonning ruhiy holatini tushunishga, uning tanlovlarini baholashga va ularni o'z hayotiy tajribasi bilan solishtirishga o'rganadi. Bu jarayon nafaqat o'qish kompetensiyasini, balki shaxsning har tomonlama rivojlanishini ham ta'minlaydi.

Adabiyot darsida badiiy matn bilan ishlash jarayonida o'qituvchi bir necha muhim vazifani bajaradi. Avvalo, u o'quvchini matnga "kirishga" tayyorlaydi, ya'ni avvalgi bilimlarini faollashtiradi va qiziqishini uyg'otadi. Keyinchalik o'qish jarayonini yo'naltiradi, savollar beradi hamda munozarani tashkil etadi. Nihoyat, o'quvchilarning xulosalarini umumlashtirib, yangi bilimlarni mustahkamlaydi. Bu jarayonda o'qituvchi o'z fikrini majburan singdirmasligi, aksincha, o'quvchilarni mustaqil xulosa chiqarishga undashi muhim. Faqat shundagina o'qish kompetensiyasi samarali rivojlanadi. Pedagogik kuzatuvlar va amaliy tajriba shuni ko'rsatadiki, badiiy matn



bilan tizimli ishlash o'quvchilarning matnni chuqurroq tushunish, mustaqil tahlil qilish hamda o'z fikrini asosli bayon etish qobiliyatini sezilarli darajada rivojlantiradi. Bu jarayon nafaqat maktab darslarida, balki keyinchalik mustaqil bilim olish va hayotiy vaziyatlarda matn bilan ishlashda ham foydali bo'ladi. O'qish kompetensiyalarini takomillashtirish metodikasi o'quvchilarga nafaqat ta'lim jarayonida, balki kundalik hayotda ham muvaffaqiyatli faoliyat yuritishga yordam beradi. Chunki zamonaviy jamiyatda matn bilan ishlash, uni tahlil qilish va baholash qobiliyati har bir inson uchun zarur kompetensiyalardan biridir.

Badiiy matnlar yordamida tilni chuqurroq o'rganish, uning estetik va intellektual jihatlarini anglash imkoniyatlari yaratiladi. Ular o'quvchilarga nutqni tinglash va anglash, so'z boyligini oshirish hamda nutqiy faoliyatni rivojlantirishda yordam beradi. Matndan olingan ma'lumotlarni umumlashtirish, yangi xulosalarga kelish, tahlil qilish va sintetik fikrlash qobiliyatini rivojlantirish badiiy matn bilan ishlashning muhim natijalaridan hisoblanadi. Har bir badiiy asar o'quvchining tafakkurini turli yo'nalishlarda rivojlantiradi. Masalan, lirik asarlar emotsional sezgirlikni, epik asarlar tahliliy tafakkurni, dramatik asarlar esa dialogik muloqot va ziddiyatlarni anglash qobiliyatini shakllantiradi.

Shuningdek, badiiy matnlar o'quvchining madaniy anglashini ham kengaytiradi. Har bir asar o'z davri, muhiti va muallifining dunyoqarashini aks ettiradi. O'quvchi bu orqali nafaqat tilni, balki tarixni, inson ruhiyatini hamda ijtimoiy munosabatlarni ham o'rganadi. Bu esa empatiya, bag'rikenglik va madaniy sezgirlikni rivojlantiradi. Shu bois adabiy ta'limda badiiy matnlardan foydalanish nafaqat o'qish kompetensiyasini, balki shaxsning umumiy madaniy saviyasini ham yuksaltiradi. Amaliyotda o'qituvchi badiiy matnni tanlashda bir qator omillarni hisobga olishi lozim.

Matn o'quvchilarning yoshiga, qiziqishlariga va til tayyorgarligi darajasiga mos bo'lishi, ayni paytda ularni yangi g'oyalar hamda his-tuyg'ular bilan tanishtirishi zarur. Juda sodda matn o'quvchilarda qiziqish uyg'otmasa, haddan tashqari murakkab matn esa uni tushunishda qiyinchilik tug'dirishi mumkin. Shu bois o'qituvchi darsdan oldin matnni sinchiklab o'rganib, savollar va topshiriqlar tizimini oldindan rejalashtirishi muhimdir. O'qish kompetensiyasini rivojlantirish jarayonida baholash ham alohida ahamiyatga ega. Baholash faqat to'g'ri yoki noto'g'ri javobni aniqlash emas, balki o'quvchining fikrlash jarayonini, matnga munosabatini va mustaqil xulosalarini kuzatishdan iborat. O'qituvchi og'zaki javoblar, yozma ishlar hamda guruh muhokamalari orqali o'quvchining rivojlanish dinamikasini kuzatishi mumkin. Bu jarayonda o'quvchini rag'batlantirish va uning har bir muvaffaqiyatini e'tirof etish muhim pedagogik ahamiyat kasb etadi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, adabiy ta'limda badiiy matnlar orqali o'qish kompetensiyalarini takomillashtirish metodikasi o'quvchilarning chuqur o'qish, tahlil qilish va ijodiy yondashuv ko'nikmalarini rivojlantirishda samarali vosita ekanligi tasdiqlandi. Taklif etilgan yondashuvni adabiyot darslarida muntazam qo'llash tavsiya etiladi. U o'quvchilarda mustaqil o'qish, tahlil qilish va o'z fikrini asosli ifoda etish malakalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Mazkur metodika o'quvchilarning yosh xususiyatlari hamda matnning murakkablik darajasiga qarab moslashtirilishi mumkin. Shu sababli undan turli sinflarda samarali foydalanish mumkin.

Badiiy matnlar o'qish kompetensiyalarini takomillashtirishning samarali vositalaridan biridir. Ulardan foydalanish orqali o'quvchilarning til madaniyati, fikrlash qobiliyati va ma'naviy dunyosi boyiydi. Shu bois o'qituvchilar badiiy matnlarni dars jarayonida samarali va maqsadga muvofiq tarzda qo'llashlari zarur. Bu esa o'quvchilarning mustaqil o'qish malakalarini shakllantirish va rivojlantirishga katta hissa qo'shadi. O'qituvchi matnni tanlashda o'quvchilarning qiziqishlari, yosh xususiyatlari va dars maqsadini hisobga olishi, o'quv jarayonida esa ularni faol ishtirok etishga undashi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Азимов Э. Г., Щукин А. П. Новый словарь методических терминов и понятий (теория и практика обучения языкам). – Москва: ИКАР, 2009. – С. 347.
2. Yo'ldoshev Q. Adabiyot o'qitishning ilmiy-nazariy asoslari. – Toshkent: O'qituvchi, 1996. – 42-bet.
3. Matjonov S. Kitob o'qishni bilasizmi? – Toshkent: O'qituvchi, 1993. – 26-bet.
4. Adams H. (ed.). Literary Criticism Since Plato. – New York: Harcourt Brace Jovanovich College Publishers, 1992.
5. To'xliyev B. Adabiyot o'qitish metodikasi: o'quv qo'llanma. – Toshkent: Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2010.
6. Badiiy asarlarni sharhlab o'rganish: tarix, tajriba va texnologiya: B. To'xliyev tavalludining 60 yilligiga bag'ishlangan maqolalar to'plami. – Toshkent: "Bayoz" MCHJ, 2014. – 435 b.
7. Husanboyeva Q., Niyozmetova R. Adabiyot o'qitish metodikasi. – Toshkent: Shafolat Nur Fayz, 2020.
8. Yo'ldoshev Q. Adabiyot o'qitishning ilmiy-nazariy asoslari. – Toshkent: O'qituvchi, 1996.
9. Mirqosimova M. O'quvchilarda adabiy tahlil malakasini shakllantirish va takomillashtirish asoslari: monografiya. – Toshkent: Fan, 2006. – 148 b.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №7(3)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.